

MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANISHIDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI

Xudoyorova M.O.

Urganch Ranch texnologilar universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Xorijiy investitsiyalar mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu maqola Xorazm mintaqasidagi xorijiy investitsiyalarning ahamiyatini tahlil qiladi va ularni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan choralarni taklif etadi. Maqola xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘rish, yangi ish o‘rinlari yaratish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish va infratuzilmani yaxshilashdagi ro‘li haqida so‘z yuritadi. Shuningdek, mintaqada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish uchun investitsion muhitni yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash, investitsion rag‘batlantirish choralari va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar keltirilgan. Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar Xorazm mintaqasining iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshiradi, raqobatbardoshligini kuchaytiradi va xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashadi. Shu sababli, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak.

Kalit so‘zlar. xorijiy investitsiya, YaIM, diversifikatsiya, iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik.

ABSTRACT

Foreign investments play an important role in the sustainable development of the regional economy. This article analyzes the importance of foreign investments in the Khorezm region and suggests the necessary measures to attract them. The article discusses the role of foreign investment in economic growth, job creation, technological innovation, and infrastructure improvement. Also, in order to attract foreign investments in the region and to effectively manage them, proposals are made for improving the investment environment, infrastructure development, training of qualified personnel, investment promotion measures and development of international cooperation. In short, foreign investments increase the economic and social potential of the Khorezm region, strengthen its competitiveness and integrate with international markets. Therefore, attracting foreign investments and their effective management should be one of the main directions of the regional economic policy.

Key words. foreign investment, GDP, diversification, economic stability, economic efficiency.

АННОТАЦИЯ

Иностранные инвестиции играют важную роль в устойчивом развитии экономики региона. В данной статье анализируется значение иностранных инвестиций в Хорезмской области и предлагаются необходимые меры по их привлечению. В статье рассматривается роль иностранных инвестиций в экономическом росте, создании рабочих мест, технологических инновациях и улучшении инфраструктуры. Также в целях привлечения иностранных инвестиций в регион и эффективного управления ими вносятся предложения по улучшению инвестиционного климата, развитию инфраструктуры, подготовке квалифицированных кадров, мерам по стимулированию инвестиций и развитию международного сотрудничества. Одним словом, иностранные инвестиции повышают экономический и социальный потенциал Хорезмской области, укрепляют ее конкурентоспособность и интегрируются с международными рынками. Поэтому привлечение иностранных инвестиций и эффективное управление ими должно стать одним из основных направлений региональной экономической политики.

Ключевые слова. иностранные инвестиции, ВВП, диверсификация, экономическая стабильность, экономическая эффективность.

KIRISH

Globalizatsiya jarayoni va xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi natijasida xorijiy investitsiyalar (XI) dunyo iqtisodiyotida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda xorijiy investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. XI nafaqat mintaqalarning iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shadi, balki ularning texnologik yangilanishiga, infratuzilmaning rivojlanishiga va aholi turmush darajasining oshishiga ham yordam beradi. Shu boisdan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish har bir mintaqaga uchun strategik ahamiyatga ega. Xorijiy investitsiyalar nafaqat kapital oqimini ta'minlaydi, balki yangi texnologiyalar, menejment tajribasi va xalqaro bozorlar bilan aloqalarni ham olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, mintaqaning raqobatbardoshligini oshiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Mintaqalarning rivojlanishida eng ko'p e'tiborni tortuvchi omillardan biri bu xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga kirib kelishi va uning turli sohalariga bo'lgan ta'siridir. Bu investitsiyalar orqali yangi ishlab chiqarish korxonalari ochiladi, mavjudlari kengaytiriladi va innovatsion texnologiyalar kiritiladi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar mintaqaning ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshiradi va yangi ish o'rinlari yaratadi. Bu esa aholi

bandligini ta'minlaydi va ularning daromadlarini oshiradi. Xorijiy investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ham hal qilishga yordam beradi. Masalan, yangi korxonalar va loyihalar orqali nafaqat iqtisodiy samaradorlikka erishiladi, balki ijtimoiy infratuzilma ham rivojlanadi. Shu tariqa, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yaxshilanadi va aholi turmush darajasi oshadi. O'zbekiston misolida ko'radigan bo'lsak, mamlakatning geografik joylashuvi va boy tabiiy resurslari xorijiy investitsiyalar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mamlakatda so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar va erkin iqtisodiy zonalar yaratish tashabbuslari xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim ro'l o'ynadi. Bu islohotlar natijasida O'zbekiston iqtisodiyoti sezilarli darajada o'sdi va xalqaro bozorlarda o'z mavqegini mustahkamladi. Ushbu maqolada mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida xorijiy investitsiyalarning ro'li, ularning iqtisodiyotga ta'siri va investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mintaqalar uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha tavsiyalar ham beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi vaqtda mintaqqa iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish butun davlat uchun ham, turli faoliyat sohalaridagi tadbirkorlik subyektlari uchun ham ustuvor vazifa hisoblanadi. Mintaqqa iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilmasdan turib, asosiy kapitalni modernizatsiya qilish, iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish va jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish mumkin emas[1].

Mohichehra Boltayeva o'zining "The role of foreign investments in the development of developed countries in the world" nomli monografiyasida xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotdagi o'rni xususida quyidagicha fikr bildirgan. Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, texnologiyalar transferini osonlashtirish, transchegaraviy savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish va global o'zaro bog'liqlikni kuchaytirishda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Ular sarmoya kiritish, ish o'rinlari yaratish va bilim almashish uchun yo'llarni taqdim etib, sarmoya kirituvchi va oluvchi mamlakatlarning rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar, shuningdek, milliy suverenitet, me'yoriy hujjatlarga rioya qilish, foyda va xatarlarni taqsimlash bilan bog'liq mulohazalarni keltirib chiqaradi, bu hukumatlar va nazorat qiluvchi organlar tomonidan diqqat bilan monitoring va boshqarishni talab qiladi[2].

Xorijiy investitsiyalar nafaqat rivojlanayotgan bozorlarda, balki rivojlangan mamlakatlarda ham iqtisodiy o'sish va rivojlanishning muhim omili sifatida paydo bo'ldi. Ushbu maqolada xorijiy sarmoyalarning rivojlangan davlatlar taraqqiyotidagi ko'p qirrali roli, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy oqibatlarini o'rganiladi. Tarixiy

tendentsiyalar, empirik dalillar va amaliy tadqiqotlar tahlili orqali rivojlangan mamlakatlarda xorijiy investitsiyalar yalpi ichki mahsulotning o'sishiga, ish bilan ta'minlashga, texnologik innovatsiyalarga va infratuzilmani rivojlantirishga qanday hissa qo'shishini aniqlaydi. Bundan tashqari, u xorijiy investitsiyalarning ijtimoiy va madaniy jihatlarini, shuningdek, ularning geosiyosiy dinamika va me'yoriy-huquqiy bazaga ta'sirini o'rganadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy landshaftning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, butun dunyo mamlakatlari taraqqiyot yo'llarini shakllantirishda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Ko'pincha kapital oqimiga intilayotgan rivojlanayotgan bozorlar bilan bog'liq bo'lsa-da, xorijiy investitsiyalarning rivojlangan mamlakatlarga ta'siri bir xil darajada chuqur va ko'p qirrali. So'nggi o'n yilliklarda globallashtirish kapital, texnologiya va tajribaning chegaralar orqali o'tishini tezlashtirdi va misli ko'rilmagan miqdorda xorijiy investitsiyalarni osonlashtirdi. Iqtisodiyotlari, rivojlangan tarmoqlari va barqaror siyosiy muhiti bilan ajralib turadigan rivojlangan mamlakatlar kengayish, diversifikatsiya qilish va investitsiyalardan daromad olish imkoniyatlarini izlayotgan xorijiy sarmoyadorlar uchun jozibador yo'nalish sifatida paydo bo'ldi. Binobarin, xorijiy investitsiyalar rivojlangan davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy o'sish strategiyalarining ajralmas ustuniga aylandi.

1 – jadval. Xorijiy investitsiya turlari[3].

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar xorijiy kompaniyaning katta ulushini, odatda kamida 10% ni sotib olishni o'z ichiga oladi. Bu investorga korxona faoliyati va boshqaruvi ustidan muhim nazorat va ta'sir o'tkazish imkonini beradigan yangi sho'ba korxonalarni tashkil etish yoki mavjud korxonalarni sotib olishni talab qilishi mumkin.
Portfel investitsiyalari	Portfel investitsiyalari xorijiy korxonalar tomonidan chiqarilgan aksiyalar, obligatsiyalar yoki boshqa qimmatli qog'ozlar kabi moliyaviy aktivlarni sotib olishni o'z ichiga oladi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardan farqli o'laroq, portfel investitsiyalari investitsiya qilingan kompaniyalarning boshqaruvi yoki faoliyatida bevosita ishtirok etishni nazarda tutmaydi. Buning o'rniga, investorlar kapitalni o'stirish, dividendlar yoki foizlarni to'lash orqali daromad olishadi.
Ko'chmas mulk investitsiyalari	Chet ellik investorlar xorijiy mamlakatlarda joylashgan ko'chmas mulk ob'ektlariga, shu jumladan turar-joy, tijorat yoki sanoat ob'ektlariga ham sarmoya kiritishlari mumkin. Ushbu investitsiyalar shaxsiy mulkni sotib olishdan tortib, ijara daromadi, kapitalni o'stirish yoki investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli rivojlanish loyihalarigacha bo'lishi mumkin.
Birlashish va sotib olish	Bu ko'pincha xalqaro chegaralarni kesib o'tib, kapital yoki aktivlarni sotib olish orqali kompaniyalarni birlashtirishni o'z ichiga oladi. Xorijiy

	investorlar mahalliy kompaniyalarning nazorat paketlarini sotib olishlari yoki bozordagi ishtirokini kengaytirishlari mumkin. Bunda investorlar yangi texnologiyalar va belgilangan iqsodiy darajaga erishishi uchun birlashishlari mumkin
--	--

Chet el investitsiyalari deganda boshqa davlatning jismoniy shaxslari, korporatsiyalari yoki hukumatlari tomonidan chet elda joylashgan korxonalaridagi aktivlar yoki ulushlarni sotib olish tushuniladi.

Mintaqa iqtisodiy tizimi faoliyatiga ko‘plab omillar ta’sir qilib, ularga iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, geografik va boshqalar kiritiladi. Ulardan eng muhimi mintaqaning aksariyat quyi tizimlari rivojlanishida ishtirok qiluvchi takror ishlab chiqarish xususiyatini aks ettiruvchi kompaniyalarning kapitallashuv jarayonlari dinamikasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son farmoni doirasida mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsad ishlab chiqildi. Ushbu strategiyaning 26- maqsadida “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish” 6 vazifasi qo‘yilgan[4].

Hududlarda tub o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, ularning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, investitsiya jozibadorligini oshirish, investitsiya jarayonlarini rivojlantirish, mavjud va potensial investitsiya resurslarini to‘plash, taqsimlash va boshqarish bilan bog‘liq muammolarni hal etishda mintaqaviy iqtisodiy tizimning barqarorligi va jahon iqtisodiy tizimi talablariga mosligi dolzarb masala hisoblanadi. “Xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchilarning iqtisodiyotni tarkibiy qayta tashkil etish imkonini berib, xorijiy investitsiyalar ko‘rinishida katta iqtisodiy foyda oladi, bandlikning o‘sishi, ish haqini oshirish va mehnat unumdorligini oshiradi. Shuningdek, strategik pozitsiyalardan foydalanish, xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining eng samarali usullaridan biridir”[5]. Bugungi kunda yuqori sifatli to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun samarali raqobatlashish uchun yordamchi korxonalarni rivojlantirish va aloqalarni osonlashtirishga qaratilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya siyosatiga muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish zarur[6]. Iqtisodiy tizim barcha turdagi korxonalar, tashkilotlar va uy xo‘jaliklarini o‘zida birlashtiradi, lekin yuqori tartibli iqtisodiy tizimning elementi bo‘lib, mintaqaviy iqtisodiy tizimlari hisoblanadi. Mintaqaning iqtisodiy tizim sifatidagi xususiyati uning ma’lum bir hududga bog‘lanishidir. Boshqacha qilib aytganda, mintaqaviy iqtisodiy tizimlar - bu murakkab hududiy tizimlarning turlaridan biri bo‘lgan muayyan makon o‘lchovlarga

ega bo'lgan tizimlardir. Iqtisodiy adabiyotlarda mintaqaviy iqtisodiy tizimning ko'plab ta'riflari mavjud. "Mintaqa" tushunchasining turlicha talqin qilinishiga qaramay, ularning barchasi mamlakatning iqtisodiy va hududiy bo'linishi bilan belgilanadigan umumiy asosga ega.

Xorijiy investitsiyalar mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega. Ular nafaqat iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, balki mintaqaviy infratuzilmani yaxshilash, texnologik yangilanishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy korxonalar uchun yangi imkoniyatlar ochish kabi bir qator muhim funksiyalarni ham bajaradi. Ushbu afzalliklar tufayli xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mintaqaviy siyosatning muhim elementiga aylanmoqda. Birinchidan, xorijiy investitsiyalar mintaqaviy iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi. Ular yangi korxonalar ochilishi va mavjud korxonalar kengayishiga yordam beradi. Natijada, ishlab chiqarish hajmi oshadi, yangi texnologiyalar va innovatsiyalar joriy etiladi, mintaqaning umumiy iqtisodiy faoliyati faollashadi. Bu jarayon mintaqaning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) o'sishini ta'minlaydi va iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtiradi. Misol uchun, xorijiy investitsiyalar yordamida sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi loyihalar amalga oshirilishi orqali mintaqaviy iqtisodiyotda yuqori o'sish sur'atlariga erishish mumkin. Ikkinchidan, xorijiy investitsiyalar yangi ish o'rinlari yaratadi va aholi bandligini oshiradi. Xorijiy kompaniyalar tomonidan mintaqada ochilgan yangi korxonalar va loyihalar nafaqat miqdor jihatidan ko'p, balki sifat jihatidan ham yuqori bo'lgan ish o'rinlarini taqdim etadi. Bu jarayon mintaqaning ishsizlik darajasini pasaytiradi va aholi daromadlarini oshiradi. Natijada, aholi turmush darajasi yaxshilanadi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar hal etiladi. Masalan, xorijiy kompaniyalar tomonidan mintaqada yaratilgan yangi ish o'rinlari mahalliy aholini yuqori malakali va yuqori maoshli ishlar bilan ta'minlaydi. Uchinchidan, xorijiy investitsiyalar texnologik innovatsiyalarni mintaqaga olib keladi. Ilg'or texnologiyalar, ishlab chiqarish usullari va menejment tajribasi mintaqaga kirib kelishi orqali mahalliy korxonalar samaradorligini oshiradi, mahsulot sifatini yaxshilaydi va yangi mahsulotlar yaratishga imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida, mintaqaning raqobatbardoshligini oshiradi va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Misol uchun, yuqori texnologiyali sanoat korxonalarining ochilishi mintaqaviy texnologik salohiyatni kuchaytiradi va innovatsion rivojlanishni ta'minlaydi. To'rtinchidan, xorijiy investitsiyalar mintaqaviy infratuzilmani yaxshilashga yordam beradi. Transport, energetika va telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishi orqali mintaqaviy iqtisodiy faoliyat osonlashadi va boshqa sohalarining ham rivojlanishiga turtki beradi. Infratuzilmaning rivojlanishi natijasida logistika xarajatlari kamayadi va

mintaqaning iqtisodiy samaradorligi oshadi. Misol uchun, xorijiy investitsiyalar yordamida yo'llar, ko'priklar va energetika infratuzilmasi qurilishi orqali mintaqaning iqtisodiy aloqalari yaxshilanadi va savdo hajmi oshadi. Beshinchidan, xorijiy investitsiyalar mahalliy korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Mahalliy korxonalar xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik qilish, ulardan tajriba va texnologiyalar o'rganish orqali o'z faoliyatlarini kengaytirishi mumkin. Bu hamkorlik natijasida mahalliy korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi va yangi bozor segmentlariga kirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Masalan, xorijiy kompaniyalar bilan qo'shma korxonalar tashkil etish orqali mahalliy korxonalar o'z ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Barcha yuqoridagi afzalliklarni hisobga olganda, xorijiy investitsiyalar mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim ro'l o'ynaydi. Ular iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi, texnologik innovatsiyalarni joriy etadi va infratuzilmani yaxshilaydi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar orqali mintaqalar global iqtisodiyot bilan integratsiyalashadi va raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bois, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning muhim elementi hisoblanadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mintaqaviy hukumatlar siyosiy barqarorlikni ta'minlash, huquqiy tizimni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va infratuzilmani yaxshilash bo'yicha zaruriy choralarni ko'rishi lozim. Shuningdek, malakali kadrlarni tayyorlash va xorijiy investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar mintaqaviy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib, ular mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshiradi, raqobatbardoshligini kuchaytiradi va xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashadi. Shu sababli, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm mintaqasi O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadigan hududlardan biri bo'lib, uning o'ziga xos tabiiy va inson resurslari mavjud. Biroq, mintaqaning yanada barqaror va tezkor rivojlanishini ta'minlash uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish zarur. Quyida xorijiy investitsiyalarning Xorazm mintaqasidagi ahamiyati va ularning ta'siri tahlil qilingan:

- Iqtisodiy o'sish: Xorazm mintaqasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali yangi korxonalar ochilishi va mavjud korxonalar kengayishi mumkin. Bu jarayon mintaqaning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) o'sishini ta'minlaydi va iqtisodiy faoliyatni faollashtiradi.

- Yangi ish o'rinlari yaratish: Xorijiy investitsiyalar orqali mintaqada yangi ish o'rinlari yaratiladi, bu esa ishsizlik darajasini pasaytiradi va aholi daromadlarini oshiradi. Mahalliy ishchi kuchi xorijiy kompaniyalarda malakali va yuqori maoshli ish o'rinlariga ega bo'ladi.

- Texnologik innovatsiyalar: Xorijiy investitsiyalar mintaqaga ilg'or texnologiyalar kirib kelishini ta'minlaydi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, mahsulot sifatini yaxshilaydi va yangi mahsulotlar yaratishga imkon beradi.

- Infratuzilmani yaxshilash: Xorijiy investitsiyalar yordamida transport, energetika va telekommunikatsiya tarmoqlari rivojlanadi. Bu jarayon mintaqaviy iqtisodiy faoliyatni osonlashtiradi va logistika xarajatlarini kamaytiradi.

- Mahalliy korxonalar uchun imkoniyatlar: Xorijiy investitsiyalar mahalliy korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Mahalliy korxonalar xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik qilish, ulardan tajriba va texnologiyalar o'rganish orqali o'z faoliyatlarini kengaytirishi mumkin.

Xorazm mintaqasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Mintaqada investitsion muhitni yaxshilash lozim. Bu o'z navbatida siyosiy barqarorlikni ta'minlash va huquqiy tizimni mustahkamlashni talab qiliadi. Xorijiy investorlar uchun barqaror siyosiy muhit yaratilishi lozim. Bu investorlarning mintaqaga ishonch bilan kirib kelishiga yordam beradi. Investorlarning huquqlarini himoya qiluvchi va investitsiyalarni himoya qiluvchi huquqiy tizim yaratilishi zarur. Korrupsiyaga qarshi kurashish va qonun ustuvorligini ta'minlash bu jarayonning muhim qismidir.

2. Mintaqada infratuzilmani rivojlantirish kerak. Transport va logistika tarmoqlarini yaxshilash – ya'ni yo'llar, ko'priklar, temir yo'llar va aeroportlarning rivojlanishi xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bu esa mintaqaning logistika imkoniyatlarini oshiradi. Ikkinchidan, Energetika infratuzilmasi barqaror va ishonchli energetika ta'minoti xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish zarur.

3. Malakali kadrlar tayyorlash: ya'ni korxonalar ochilishi shu soha bo'yicha malakali kadrlarni talab qiladi. Shu sababli mintaqada investitsiyalarni ko'proq jalb qilish uchun ta'lim va kasbiy tayyorgarlik dasturlarini rivojlantirish lozim. Mahalliy ishchi kuchining malakasini oshirish uchun ta'lim va kasbiy tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda kadrlarni tayyorlash dasturlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, xorijiy tillarni

o'qitish kerak. Xorijiy investorlarga qulay sharoitlar yaratish uchun mahalliy aholini xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga rag'batlantirish zarur.

4. Investitsion rag'batlantirish choralari: Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilishi mumkin. Bu investorlar uchun mintaqani jozibador qiladi. Bundan tashqari, investorlar uchun maxsus iqtisodiy zonalar yaratish orqali ular uchun qulay sharoitlar ta'minlash mumkin. Bu zonalar soliq imtiyozlari, erkin bojxona rejimi va boshqa rag'batlantirish choralari mavjud bo'ladi.

5. Xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish kerak. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish muhimdir. Bu tashkilotlar tomonidan berilgan grantlar, kreditlar va texnik yordam mintaqaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Xorijiy investorlar uchun xalqaro savdo-sotiq aloqalarini kengaytirish va eksport imkoniyatlarini oshirish muhimdir. Bu jarayon xorijiy investorlarga mintaqada investitsiya qilish uchun rag'bat beradi.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish orqali Xorazm mintaqasi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, mintaqaning iqtisodiy o'sishini tezlashtiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi, texnologik innovatsiyalarni joriy etadi va umumiy barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Xorijiy investitsiyalar mintaqaning xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuvi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi, shu boisdan, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zaruriy choralarni ko'rish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Natalia A., Lyudmila A. The current state of investments attraction into the regional economy.
2. <https://scientificpublication.org/index.php/gbps/article/view/25/23>.
3. M.Boltayeva. Dunyodagi rivojlangan davlatlar rivojlanishida xorijiy investitsiyalarning o'rni monografiyasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60 sonli Farmoni.
5. <http://www.raexpert.ru/ratings/regions/2013/method>. Rating of Investment Attraction of Russia Regions: Techniques.
6. Khan M., H.Y. Lee, J.H. Bae. Inward foreign direct investment: A case study of Pakistan. Mediterranean Journal of Social Sciences, 9 (5) (2018)